



SHUKRULLONING “KAFANSIZ KO‘MILGANLAR” ASARIDA QO‘LLANILGAN OKKAZIONAL BIRLIKLARNING USLUBIY XUSUSIYATLARI

Abdurahmonova Sofiya

NavDU Tillar fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti
yo‘nalishi 2-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15478846>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-May 2025 yil

Ma‘qullandi: 15-May 2025 yil

Nashr qilindi: 21-May 2025 yil

KEYWORDS

Okkazional birliklar,
okkazional o‘xshatishlar,
yozuvchi uslubi, yozuvchining
o‘xshatishlari.

ABSTRACT

Okkazional so‘zlar tildagi ifoda vositalaridan biri bo‘lib, ular favqulodda yaratiladigan, ijodkor nutqining individual mahsuli bo‘lib qoladigan, tilning me‘yoriy unsurlariga aylanmaydigan, doimo yangilik bo‘yog‘ini saqlaydigan nutqiy hodisadir.

Okkazional so‘zlar so‘zlovchi yoki ijodkorlar tomonidan o‘z fikr va maqsadini o‘ziga xos tarzda va aniq ifodalash, o‘zlari tasvirlayotgan biror shaxs, narsa, obyekt, voqea-hodisalarni barcha qirralari bilan namoyon etish hamda ularga nisbatan bo‘lgan o‘z munosabati, ya‘ni his-tuyg‘ularini yorqin ifodalash maqsadida yaratiladi va qo‘llanadi. Okkazionalizmlar tasvir obyektini tasvirlashda tildagi imkoniyatlar nutq egasini qanoatlantira olmaganida yaratiladi. Bugungi maqolamizda biz Shukrulloning “Kafansiz ko‘milganlar” asaridagi okkazional so‘zlarni tahlil ostiga olamiz.

Ma‘lumki, bu asar o‘tgan asrimizning eng “kirlik davri” – qatag‘on davrini yoritib bergan. Boshidan o‘tkazgan qiyinchiliklarini, to‘g‘rirog‘i, xo‘rliliklarini eslash insonni yana bir karra og‘ir azobga ro‘baro qiladi. Uni yozish esa... Qatag‘onlik davri tasviri, undan ham og‘iri – o‘zining “xalq dushmani” deb ayblanishi haqida yozish, mahbusligini eslash, qamoq voqealari, lager hayoti, so‘zsizlik... bularning haqqoniy tasviri Shukrulloning “Kafansiz ko‘milganlar” asarida yaqqol ifodalangan. Adib bu hayotni yozar ekan, o‘tmishini eslab, o‘sha davrning adolatsiz tuzimini eslab, begunoh azob chekkan insonlarni eslab yana g‘amga to‘ladi.

Adib o‘zining asarida okkazional birliklardan ham unumli foydalanadi. Okkazional birliklar romanning o‘qimishli(o‘qishli emasmi) chiqishiga yordam bergan. Romanni o‘qigan kitobxon birorta joyida noaniqlikka (mavhumlikka) duch kelmaydi.

“Oladigan nonimiz shunaqangi qop-qora, jirish bo‘lardiki, do‘konchi pichoqni suv solingan chelakka tiqib olmasdan buxankani kesa olmasdi”.

Bu gapda yozuvchi “jirish” okkazional birligini qo‘llaydi. Jirish – eskirgan, juda qattiqlashgan, toshdek qattiq kabi ma‘noni ifodalagan.

“Qattiq so‘zini qo‘llaganda ham bo‘lar,” – edi deya fikr yurituvchilar ham bor. Ammo yozuvchi kitobxonni qiziqtirish uchun ham okkazional birliklardan foydalangan.

“Qo‘limdagi nonni Xadradagi ochlar yulib kelmasliklari uchun ehtiyotlab xaltaga solib olib kelardim”.

Yozuvchi yuqoridagi gapda Xadra so'zidan qo'llanadi. Bu so'zga nazar tashlaydigan bo'lsak, qadimda xadra-ayollar o'tiradigan joy yoki xona, ayniqsa to'y, ma'raka yoki boshqa yig'inlarda ayollar alohida o'tiradigan joyga "xadra" deyiladi. Erkaklar tomoni "ayvon" yoki "oshxona" bo'lsa, ayollar tomoni "xadra" deyilgan. Xadra uyning ichki qismida mehmonlar o'tirishi uchun mo'ljallangan joy.

Yozuvchi yuqoridagi gapida esa o'rin ma'nosi ifodalovchi okkazional birligidan qo'llanadi. Yozuvchi uchun xadra – *kuchaning chekka qismi, devorga yaqin joy*. Ochlikdan o'sha davrda hamma ko'chada tilanchilik qilishga majbur bo'lishgan va yo'lning devor panalarida yo'lovchilardan sadaqa so'rashgan.

"Atrofingdagi semonli to'rt devor, bo'sh qolgan temir karavotlar, dardlashib, ko'ngil yozadigan odamlar ham hukm qilinib tag'dir nasib qilgan joylardagi lagerlarga ketib bo'ldi." (Kafansiz ko'milganlar, 82-bet) O'shbu gapdagi "semonli" okkazional birligi – baquvvat, zax tortgan kabi ma'nolarni ifodalaydi. Yozuvchi *sement to'rt devor* deganda ham bo'lar edi, ammo *semonli* okkazional birligi orqali kutobxonga estetik ta'sir ko'rsatmoqda.

"Sening ashaddiy dushmanligingning bitta belgisi shundaki, hattoki sen sovet chekistlarini yolg'onchi qilmoqchi bo'lasan, ularga ham ishonmaysan".

Yuqoridagi gapda yozuvchi "sovet chekistlari" okkazional birligini qo'llaydi. Yozuvchi bu so'zni "ChK" — Favqulodda Komissiya (ruscha: Чрезвычайная комиссия) so'zining qisqartmasidan hosil qiladi. Chekistlar kimlar- qattiqqo'l, sirli, siyosiy dushmanlarga qarshi kurashuvchi odamlar.

Yozuvchi yuqoridagi gapda sovet chekistlarini – vatanparvar, davlat xavfsizligini ta'minlovchi insonlar deya ifodalaydi.

"Mening kichkina 3 yoshli Abdulaziz degan ukam esa zotiljam bolib qoldi. Isitmasi baland, shaytonlab qoladi. Ota-onam uxlamay galma-gal ko'tarib chiqishdi".

O'shbu parchada yozuvchi zotiljam so'zidan foydalanadi. Bu so'z- O'pkaning yallig'lanishi, o'pkaning yuqumli kasalligi degan ma'noni anglatadi. Bu kasalikka chalingan ukasini shaytonlab qolishini ham aytib ketadi. Shaytonlamaq - isig'i balandligidan bosinqirab qolishini, o'zini tutolmayotganini, yoki holsiz va har xil harakatlar qilayotganini anglatadi.

Shunday nutqiy vaziyatlar bo'ladiki, ularni tasvirlash uchun odatdagi lug'aviy birliklarning ma'nosi kamlik qiladi. Shuning uchun hali so'zlovchining ham, tinglovchining ham tasavvurida gavdalanib ulgurmagani, hali matnda reallashish imkoniga ega bo'lmagan so'z yaratishga to'g'ri keladi. Yozuvchi ham o'zining romanini kitobxon o'qiganda sira ham zerikmasdan, shashti susaymasdan o'qishi uchun yangi okkazional birliklardan samarali foydalangan. Okkazional birliklar asarda o'quvchiga noaniq bo'lgan so'zlarni tez anglashiga yordam beradi. Yozuvchilarni yangi okkazional ijod mahsullarini bir- biri bilan taqoslaydi. Bu esa o'quvchini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Toshaliyeva S. O'zbek tilida okkazional so'z yasalihi: –Toshkent: 1998.
2. To'xtasinova O. Badiiy okkazionalizmlar.-Farg'ona, 2006. ()
3. Kafansiz ko'milganlar: avtobiografik roman/Shukrullo.–Toshkent: Yangi asr avlodi, 2024.– 192 b